



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil "6" yanvar

QAROR № 1

Toshkent sh.

**Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar
kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni 9-moddasiga muvofiq, 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796- sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakat iste'mol bozorida narxlar darajasini aniqlash bo'yicha tovarlarning narxlari kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, Statistika agentligi

QAROR QILADI:

1. Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar:

Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 31- martdagi "Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hududiy statistika organlarining xodimlari uchun qo'llanmani tasdiqlash to'g'risida"gi 7- son qarori;

Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 31- martdagi "Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 8- son qarori;

Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 26- yanvardagi "Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi 3- son qarori;

Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 26- yanvardagi "Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hududiy statistika organlarining xodimlari uchun qo'llanmaga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi 4- son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov